



## ASHTARXONIYLAR SULOLASI VAKILLARINING DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATIDAGI ASOSIY JIHATLARI

*Rajabov Alisher Shavkatovich*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti.*

*Turdiyeva Gulnoza Murod qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 1tarix23 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ashtarxoniyalar sulolasi vakillari va bu sulolaning Buxoro xonligida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Shayboniyalar, ashtarxoniyalar, Astraxan, Jonibek, Nodir Muhammad, Abdullaxon II, To'qay Temur.

Shayboniylardan keyin Buxoro xonligi taxtiga kelgan sulola Ashtarxoniyalar sulolasi ushbu sulolaning kelib chiqishi Astraxondan bo'lganligi uchun shunday deb nomlangan. Ashtarxoniyalar sulolasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu sulola mo'g'ullarga borib taqaladi. Ashtarxoniyalar Chingizxonning o'g'li bo'l mish Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur avlodidan bo'lib, 15-asrning 80-yillardan Astraxanda hukmronlik qilganlar. XVI asr o'rtalarida Astraxan Ivan Grozniy tomonidan bosib olingach, sulola hukmdori Yormuhammad sulton o'z yaqinlari bilan Buxoroga keladi.<sup>1</sup> Bu paytda Buxoroda shayboniyalar sulolasiga mansub Iskandar sulton hukmronlik qilayotgan edi. Yormuhammad sulton va Shayboniyalar o'rtasida yaqin qarindoshlik aloqalari o'rnatildi. Jumladan, Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek sulton Iskandarxonning qizi Zuhrabegimga uylanadi. Ularning o'g'llari Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad Abdullaxon II davrida yuqori mavqega ega bo'ladi. Abdullaxon II Iskandar

<sup>1</sup>Б.Ж.Эшов, А.А.Одилов, «Узбекистон тарихи»-Тошкент-2014.389-бет



sultonning o'g'li bo'lib ,undan keyin hukmronlik taxtiga kelgan.Abdullaxon II dan keyin taxtga uning o'g'li Abdulmo'min o'tiradi.U fitnachilar tomonidan o'ldirilganligi sababli hukmronligi uzoqga cho'zilmaydi(1598-1599).Undan keyin taxtga Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammad II (1599-1601) o'tiradi.Bu shayboniyalar sulolasining oxirgi vakili edi.Pirmuhammad II dan keyin shayboniyarda taxtga munosib nomzod qolmaydi.Mamlakatda boshboshdoqliklar va o'zaro urushlar avj olib ketadi.Bularning oldini olish uchun 1601-yilda yirik o'zbek qabilalari boshliqlari tomonidan Buxoro taxtiga Ashtarkoniy Jonibek sulton taklif qilinadi.Ammo u o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi.Lekin Dinmuhammad Buxoroga kelishida qizilboshlilar bilan to'qnashuvda halok bo'lgach, uning ukasi Samarcand hokimi Boqimuhammad taxtga keladi(1601-1605).Ushbu sanadan boshlab Buxoro xonligi tarixida yangi sulola Ashtarkoniylar sulolasi boshlanadi.Ushbu sulola vakillari 1756-yilga qadar ya'ni,mang'itlar sulolasi hakimyatga kelgunga qadar davom etadi.Boqi Muhammad ichki boshboshdoqliklarga chek qo'yishga va mamlakat boshqaruvini tartibga solishga harakat qilgan.1602-yil Balxdan eronliklarni haydab chiqarib,bu yerga ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinlaydi.Vali Muhammadxon(1605-16011) davrida Balx va Hirot uchun kurashlar davom etadi.1607-yil Eron shohi Shoh Abbos bilan Vali Muhammad o'rtasida sullh tuziladi.Sulhga ko'ra Xuroson butunlay safaviylar qo'liga o'tadi.Vali Muhammaddan keyin taxtga Boqi Muhaddning o'g'li Imomqulixon(1611-1642) o'tiradi." Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi.Uning zamonida na kambag'al,na bechora qolmagandi.Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi,qorong'u tushishi bilan oddiy kiyim kiyib, vaziru qo'rchi bilan bozorlaru mahallalarni aylanib,oddiy xalqning haqiqiy ahvoldidan xabardor bo'lib turgan." Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi.Toshkent va xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari uchun qozoqlar, jung'orlar, qalmoqlar, qoraqalpoqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi.1613-yil Toshkent



yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o'z tasarrufiga kiritadi. Imomqulixondan keyin taxtga ukasi Nodir Muhamad(1642-1645) o'tiradi. Uning davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik kuchayadi. Xon mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk qilib 12 nafar o'g'li , 2nafar jiyani va nabiralariga mulk qilib taqsimlab beradi. Nodir Muhammaddan keyin taxtga o'g'li Abdulazizzon (1645-1681) o'tiradi. Uning davrida mamlakatda notinchliklar hukim surgan. 1681-yil Abdulazizzon taxtni ukasi Subhonquli Sultonga(1681-1702) topshirib,o'zi haj safariga jo'naydi. Subhonquli davrida ham ijtimoiy-iqtisodiy , siyosiy vaziyat o'zgarmadi. 1702-yil Subhonqulixon vafot etgach , taxtni o'g'li Ubaydullaxon II (1702-1711) egallaydi. U goh isyonkor qabilalarga, goh bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kelgan ko'chmanchilarga qarshi kurash olib borishga majbur bo'gan. Ubaydullaxonning asosiy maqsadi siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi. Ubaydullaxon davrida viloyat hokimlari mustaqil bo'lishga intiladi. Natijada, Ubaydullaxonga qarshi fitna uyishtirildi va 1711-yilning 16-martida o'ldirildi. Taxtga Ubaydullaxonning ukasi Abulfayizzon (1711-1747) o'qazildi. Abulfayizzon kundan kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoladi. Abulfayizzon davrida mang'it urug'idan bo'lган Muhammad Hakimbiyning obro'yi oshib boradi. Bu ko'plab amaldorlarga yoqmagan. Ular orasida Shahrisabiz hokimi Ibrohimbiy kenagas ayniqsa ajralib turadi. Ibrohimbiy kenagas 1722-yilda o'zining bir guruuh maslakdoshlari bilan asli kelib chiqishi xiva xonlaridan bo'lган Rajab sultonni Samarqand hokimi deb, o'zini esa" amirlar amiri deb e`lon qiladi. Ibrohimbiy Buxoroga yurish qiladi. Muhammad Hakimbiy mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, Rajab sulton Buxoroni egallay olmadi. Buxoro xonligidagi parokandalik qo'shni davlatlar uchun qulay vaziyat tug'dirdi. Eron shohi Nodirshoh 1736-yil o'g'li Rizoquli boshchiligidagi qo'shin yuboradi. Ammo Xiva xoni Elbarsxonning yordamga kelayotganini eshitib orqaga qaytib ketadi. 1740-yil nodir Muhammadning o'zi Buxoroga yurish qiladi. Nodirshoh Chorjo'y atrofidan Amudaryoni kechib o'tgan



paytda Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy o'z xizmatini taklif qiladi. Nodirshoh Rahimbiyni o'z xizmatiga oladi. 1740-yil Buxoro Eronga vassal davlatga aylanadi. 1747-yil Abulfayizzonga fitna uyishtirilib o'ldiriladi.

So'ngi Ashtarxoniyalar Abdulmo'min(1747-1751), Ubaydullaxon(1751-1754, Sherg'oziyxon (1754-1756) lar davrida amalda hokimyat Rahimbiy qo'lida edi. Muhammad Rahimbiy 1756-yildan boshlab rasman buxoro xoni deb elon qilinadi, hokimyat mang'itlar qo'liga o'tadi. Shu paytdan boshlab Buxoro xonligi amirlik deb yuritiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ashtarxoniyalar davri(1601-1756) Movorounnahrda o'zaro siyosiy nizolar, markaziy hokimyatning zaifashib borishi bilan xarakterlansada, iqtisodiy hayot va madaniyatning bazi sohalari (me'morchilik, tarixnavislik, adabiyot) da ijobiy siljishlar bilan ham ko'zga tashlanadi.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. B.J.Eshov va A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. T.2014.
2. A.Sagdullayev. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.1996.